



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES



ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2025. Issue 8

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London , 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





“PUL” KONSEPTINING REGULYATIV ZONASI: MIQDOR TABUSI VA EVFEMIZATSIYA STRATEGIYALARI

Turg'unboyeva Diloromxon Muzaffarjon qizi

Andijon davlat universiteti magistranti

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek tilida pul miqdorini ochiq nomlash bilan bog‘liq nutqiy cheklov va uni aylanib o‘tuvchi evfemizatsiya vositalari tahlil qilinadi. Cheklov “pul” konseptining regulyativ zonasidagi me‘yor sifatida talqin qilinib, evfemizmlarning to‘rt strategiyasi ajratiladi hamda ular obyekt, yo‘nalish va pragmatik vazifa mezonlari bo‘yicha tizimlashtiriladi. Shuningdek, raqamli diskursda ushbu me‘yorning yemirilishi kuzatiladi.

Kalit so‘zlar: konsept, regulyativ zona, nutqiy tabu, evfemizm, kvaziekstrazona, nutq odobi, pragmalingsvistika, internet diskursi, o‘zbek tili.

Abstract. The article analyses the speech restriction on openly naming sums of money in Uzbek and the euphemistic devices that circumvent it. The restriction is interpreted as a norm within the regulative zone of the concept MONEY; four euphemistic strategies are distinguished and systematised by object, direction and pragmatic function. The erosion of this norm in digital discourse is also observed.

Key words: concept, regulative zone, speech taboo, euphemism, quasi-extrazone, speech etiquette, pragmalinguistics, internet discourse, Uzbek language.

Kirish. Konsept strukturasida axborot mazmuni va obrazli qatlam bilan bir qatorda regulyativ (me‘yoriy) zona ham ajratiladi – unga ushbu konsept bilan bog‘liq xulq-atvor normalari kiradi [3]. “Pul” konseptining regulyativ zonasida ijtimoiy etika, diniy-ma‘naviy va huquqiy me‘yorlar joylashadi. Ijtimoiy etika bandidagi eng barqaror qoidalardan biri quyidagicha: kishining hamyonini, ya‘ni daromadini so‘rash odobsizlik sanaladi.

Bu me‘yor tilda izsiz qolmaydi. Miqdorni ochiq nomlash cheklangan ekan, so‘zlovchi uni ifodalashning bilvosita vositalarini ishlab chiqishga majbur bo‘ladi. Maqolaning maqsadi – shu vositalarni aniqlash va ularni tizim sifatida tavsiflashdan iborat. Ta‘kidlash joizki, mavjud ishlarda evfemizmlar odatda ro‘yxat tarzida beriladi; biz esa ularni o‘zaro farqlovchi mezonlar asosida guruhlashga harakat qilamiz.

Nazariy asos. G.G.Slishkin konsept strukturasida to‘rtta zonani ajratadi: asosiy – intrazona va ekstrazona, qo‘shimcha – kvaziintrazona va kvaziekstrazona. Intrazonaga denotatning o‘ziga xos belgilari (pul – ayirboshlash vositasi, qiymat





o'Ichovi), ekstrazonaga paremiya va ko'chma ma'nolardan olinadigan birliklar (pul – qo'lning kiri) kiradi.

Tadqiqotimiz uchun hal qiluvchi – kvaziintrazona va kvaziekstrazona. Slisshkin ta'kidlashicha, bu zonalar konsept nomining ohangdoshligi hamda evfemizmlardan foydalanish natijasida yuzaga keladigan shakliy assotsiatsiyalar bilan bog'liq. Demak, evfemizatsiya tasodifiy hodisa emas, alohida zona hosil qiluvchi tizimli mexanizmdir.

K.Allan va K.Berrijning evfemiya nazariyasida evfemizm tabuga javob sifatidagina emas, so'zlovchi o'zining yoki tinglovchining "yuz"ini saqlash zaruriyati tug'ilgan har qanday vaziyatda yuzaga kelishi ko'rsatiladi [2]. Quyidagi tahlil shu qoidani tasdiqlaydi: o'zbek materialida evfemizmlarning bir qismi taqiqdan qochish uchun emas, munosabatni tartibga solish uchun ishlaydi.

Evfemizatsiya strategiyalari. Material to'rt strategiyani ajratish imkonini beradi.

Birinchisi – **pasaytirish**. So'zlovchi o'z moddiy holatini kamaytirib ko'rsatmoqchi bo'lganda leksik zanjirning quyi bo'g'inlarini faollashtiradi: bor-yo'g'i shu tiyinlar, shunchaki choy-chaqa [5]. Bunda mablag' va oylik tushunchalari lisoniy ongda neytrallashadi. Vazifasi – hasaddan saqlanish va kamtarlik me'yoriga rioya qilish.

Ikkinchisi – **noaniqlashtirish**. Miqdor aniq raqam bilan emas, chegaralari ochiq qoldirilgan birikma bilan beriladi: ancha-munchalik bo'lib qoldi. Axborot ataylab to'liq uzatilmaydi – tinglovchi miqdorni o'zi taxmin qilishi kutiladi.

Uchinchisi – **bilvosita xarakteristika**. Miqdor shaxsning belgisi orqali ifodalanadi: qo'li uzun, qo'lida oltin tug'ilgan, qo'li kalta, qo'li yupqa. Bu birliklar miqdorni umuman nomlamaydi, ammo undan ko'proq axborot uzatadi: qo'li uzun deyilganda faqat pulining ko'pligi emas, balki puldor tanish-bilishlari borligi, pul kuchi bilan ko'p muammoni hal eta olishi ham nazarda tutiladi.

To'rtinchisi – **taqiqlangan harakat evfemizmlari**. Bu guruh miqdorni emas, huquqiy jihatdan taqiqlangan amalni yashiradi: yog'lab qo'ymoq, qo'lini qizitmoq [4]. Cheklovning manbai bu yerda odob emas, javobgarlikdir.

Strategiyalarning tizimli tavsifi. To'rt strategiya uch mezon bo'yicha farqlanadi: baho obykti, semantik yo'nalish va pragmatik vazifa.

Strategiya	Obyekt	Yo'nalish	Pragmatik vazifa
------------	--------	-----------	------------------





Pasaytirish	o'z holati	kamaytirish	hasaddan saqlanish, kamtarlik
Noaniqlashtirish	o'z holati	neytrallash	etiketni buzmaslik
Bilvosita xarakteristika	o'zga shaxs	kuchaytirish	baholash, ijtimoiy o'rin belgilash
Taqiqlangan harakat	harakat	yashirish	javobgarlikdan qochish

Jadval bir qonuniyatni ochadi: so'zlovchi o'zi haqida gapirganda semantik yo'nalish doim pastga qaragan, o'zga shaxs haqida gapirganda esa yuqoriga. Ya'ni evfemizatsiya bu yerda yagona vazifa bajarmaydi – u kommunikantlar o'rtasidagi ijtimoiy masofani ikki tomonlama sozlaydi. Uchinchi strategiyada esa evfemizm axborotni yashirmaydi, aksincha kengaytiradi – ya'ni evfemizmning an'anaviy "yumshatuvchi" ta'rifidan chetga chiqadi.

Tabuning aksiologik asosi. Miqdorning aniq raqamlar bilan emas, evfemizmlar orqali ifodalanishi konseptning aksiologik qatlamiga – pulning dunyoviy va o'tkinchi tabiatiga ishora qiladi. Shu bois evfemizatsiya shunchaki muloyimlik vositasi emas: u regulativ zonadagi me'yorni har bir nutqiy aktda qayta tasdiqlaydi.

Me'yorning raqamli diskursda yemirilishi. Klassik nutqda shaxsiy daromad mavzusida gap ochish odobsizlik sanalgan bo'lsa, internet diskursida bu mavzuni ochish muvaffaqiyatning ochiq o'lchovini namoyish etish vositasiga aylandi. Bloggerlarning tadbirkorlar bilan intervyularida nechta biznes borligi va qancha sof foyda olinishi batafsil aytiladi hamda ko'p sonli ijobiy izohlar oladi. Bunday siljish raqamli muhitning gibril nutqiy tabiati bilan izohlanadi [6].

Bu holat regulativ zonaning o'zgaruvchanligini ko'rsatadi: konseptning yadroviy semalari barqaror qolgani holda, me'yoriy zona kommunikativ muhit almashinishi bilan qayta ko'rib chiqilmoqda. Ayni paytda evfemizmlar iste'moldan chiqqani yo'q – ular endi yagona maqbul variant emas, xolos.

Xulosa. Pul miqdorini ochiq nomlash bilan bog'liq cheklov o'zbek tilida "pul" konseptining regulativ zonasidagi barqaror me'yordir. Uni aylanib o'tish uchun til to'rt strategiyani ishlab chiqqan; ular obyekt, yo'nalish va vazifa bo'yicha izchil taqsimlangan tizim hosil qiladi.

Bu vositalar konsept strukturasida kvaziekstrazonani shakllantiradi, ya'ni evfemizatsiya periferik qatlamni kengaytiruvchi tizimli mexanizm sifatida





namoyon bo‘ladi. Tadqiqotning cheklovi shundaki, xulosalar sifat tahliliga asoslangan; strategiyalarning nisbiy chastotasini aniqlash uchun korpus materiali zarur. Natijalar nutq madaniyati, pragmalingsvistika va tarjima nazariyasi kurslarida qo‘llanilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Слышкин Г.Г. Лингвокультурные концепты и метаконцепты: дис. ... д-ра филол. наук: 10.02.19. – Волгоград, 2004. – 323 с.
2. Allan K., Burridge K. Euphemism and Dysphemism: Language Used as Shield and Weapon. – New York; Oxford: Oxford University Press, 1991. – 263 p.
3. Попова З.Д., Стернин И.А. Когнитивная лингвистика. – М.: АСТ: «Восток–Запад», 2007. – С. 18.
4. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1978. – Б. 43, 212, 242.
5. Shirinova N. Gradual inparallelizm – lisoniy ma’nolarni farqlash usuli sifatida // Oriental Renaissance. – 2024. – №4. – B. 353.
6. Crystal D. Language and the Internet. 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006. – xi + 304 p.

